



UDK: 811.161.1+811.512.133'373.7:17.023.37

Sirojiddin T. TUXTAYEV,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sirojiddintuxtaev55@gmail.com, ORCID: 0000-0001-5800-8724

Professor, f.f.d. R.Madjidova taqrizi asosida

RUS VA O'ZBEK PAREMIYALARIDA SAXIYLIK KONSEPTINING VERBALLASHUVI

Annotatsiya

Mazkur maqolada rus hamda o'zbek tillaridagi paremiyalarining saxiylik konseptining mazmuniy tarkibi va strukturasi tahliliy bayon etildi. Unda ushbu konseptning paremiologik maydoni yoritiladi, shuningdek, paremiyalarda saxiylik konseptining lisoniy reprezentatsiyasi masalasiga urg'u berildi hamda misollar yordamida tahlil etiladi va asoslanadi.

Kalit so'zlari: Paremiologik maydon, periferiya, yaqin periferiya, uzoq periferiya, saxiylik konsepti, sema, aksiologik qarama-qarshilik, saxiylik, oppozitsiyalar, periferik komponentlar, lisoniy reprezentatsiyasi.

ВЕРБАЛИЗАЦИЯ ПОНЯТИЯ ЩЕДРОСТИ В РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИЯХ

Аннотация

В данной статье представлено аналитическое описание содержания и структуры понятия щедрости в русских и узбекских паремиях. В статье освещается паремиологическое поле этого понятия, а также рассматривается вопрос лингвистического представления понятия щедрости в паремиях, анализируется и обосновывается это с помощью примеров.

Ключевые слова: Паремиологическое поле, периферия, ближняя периферия, дальняя периферия, понятие щедрости, sema, аксиологическая оппозиция, щедрость, оппозиции, периферийные компоненты, лингвистическое представление.

VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF GENEROSITY IN RUSSIAN AND UZBEK PROVERBS

Annotation

This article provides an analytical description of the content and structure of the concept of generosity in Russian and Uzbek proverbs. It highlights the paremiological field of this concept, and also emphasizes the issue of linguistic representation of the concept of generosity in proverbs, analyzes and justifies it with the help of examples.

Key words: Paremiological field, periphery, near periphery, far periphery, concept of generosity, sema, axiological opposition, generosity, oppositions, peripheral components, linguistic representation.

Kirish. Zamonaviy jahon tilshunosligida paremiologik fondning aksiologik xususiyatlari va ularning qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini aniqlash hamda xalqning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ifodalovchi til birliklarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki paremiyalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ixcham, barqaror va ramziy shaklda aks etgan lisoniy ko'rinishi bo'lib, ular xalqning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va madaniy tajribasini mujassam etadi. Paremiyalarning aynan shu xususiyati til tizimi va madaniy ong o'rtasidagi uzviy aloqani chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida so'nggi yillarda paremiologik birliklarning aksiologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar sezilarli darajada faollashgan bo'lib, bunda paremiyalar til tizimida shakllangan qadriyatlar majmuasini aks ettiruvchi konseptual ko'zgu sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu birliklar xalqning dunyoqarashi, milliy mentaliteti, madaniy tajribasi va axloqiy tamoyillarini uzviy ifodalashi bilan ham ijtimoiy-madaniy indikator vazifasini bajaradi. Paremiyalarda jamlangan ma'naviy merosni o'rganish orqali jamiyat ongida mavjud qadriyatlar ierarxiyasini aniqlash, uning taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq o'ziga xosliklarni yoritish imkoniyati kengayib bormoqda. Ayniqsa, globallashtiruv jarayonlari kuchaygan sharoitda turli tillarda ifodalangan milliy qadriyatlarining saqlanishi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuv mexanizmlarini tadqiq etish, shuningdek til vositasida ma'naviy merosni asrab-avaylash va targ'ib etish zarurati ortib bormoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb

bo'lib, ular paremiologiyaning rivojiga, milliy qadriyatlarining lisoniy ifodasini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Binobarin, "yurtningizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash" hozirgi kunda o'zbek tilshunosligining oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, rus va o'zbek tillarida saxiylik konseptining aksiologik xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilish, ularda mujassam bo'lgan umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash tilshunoslikda tilda aks etgan qadriyatlar tizimini o'rganishga, xalqning ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda millatlararo madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda aksiologik lingvistika (lingvoaksiologiya) sohasida ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi. A.A.Ivinning tadqiqotlari aksiologik komponentlar va ularning leksik-semantik ifodalanishi masalasiga qaratilgan bo'lib, til birliklaridagi qadriyatlar tizimining ichki strukturasi aniqlashga xizmat qiladi. N.D.Arutyunova esa tilning madaniyat bilan bog'liqligi va aksiologik mazmunni kodlash mexanizmlarini tadqiq etgan, til vositasida xalqlararo qadriyatlarining aks etishini o'rganishga alohida e'tibor bergan.


E.M.Volfning ilmiy ishlari lingvistik aksiologiya va semantik analiz usullarini birlashtirib, so'zlarning qadriyatli mazmunini aniqlash va tasniflashga qaratilgan. S.G.Pavlov o'z navbatida aksiologik komponentlarning pragmatik funksiyalarini tahlil qilib, ularning kontekstga bog'liqligini ochib bergan. E.F.Serebryannikova va A.N.Baranovning tadqiqotlari esa til birliklarida qadriyatlarni strukturalash,

lingvoaksiologik kategoriyalarni belgilash va ularni sistematik tarzda tahlil qilishga qaratilgan.

Ushbu olimlarning ishlari lingvoaksiologiya fanining nazariy asoslarini mustahkamlash, aksiologik komponentlarni aniqlash va ularni til birliklariga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan, til orqali qadriyatlarini ifodalash va tahlil qilish sohasida izchil ilmiy makon yaratilgan va tillararo hamda madaniyatlararo tadqiqotlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzuni yoritishda qiyosiy-tipologik, komponent, kognitiv-semantik, lingvomadaniy, lingvistik tavsif va kontekstual tahlil usullari qo'llanilgan. Izlanish asosan qiyosiy-tipologik komponent tahlili usuliga murojaat qilinadi, hamda rus va o'zbek tillaridagi

Saxiylik konseptining struktur tuzilishi:



Saxiylik konseptining kognitiv belgilari uning tub mohiyatini ochib beradi. Bazaviy kognitiv belgi sifatida berish harakati ajralib turgan holda, har ikki tilda ham keng ma'noda qo'llaniladi va nafaqat moddiy, balki ma'naviy ne'matlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, *давать советы* – maslahat bermoq, *дарить радость* – quvonch ulashmoq kabi birikmalar orqali ifodalanadi. Konseptning mazmuniy tarkibida berish aktining turli aspektlari aks etgan: 1) berish usuli: ixtiyoriy (по своей воле – o'z xohishi bilan), beg'araz (бескорыстно – tamanno qilmay), ochiqchasiga (открыто – oshkora); 2) berish obyekt: moddiy (средства – mol-mulk), ma'naviy (душевное тепло – mehr-oqibat), amaliy (помощь – yordam); 3) berish motivi: ezgulik (добро – yaxshilik), rahmdillik (милосердие – rahm-shafqat), insonparvarlik (гуманность – insoniylik). Ikkinchi muhim kognitiv belgi – subyektning ichki dunyosi bilan bog'liq ko'ngil kengligi (rus. *душевная широта*). Har ikki tilda ham bu belgi metaforik ifodalar orqali namoyon bo'ladi: *большое сердце* – keng qalb, *открытая душа* – ochiq ko'ngil. Uchinchi kognitiv belgi – ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi jamiyat farovonligiga xizmat (rus. *служение обществу*) – lug'atlarda bevosita qayd etilmagan bo'lsa-da, u saxiylik konseptining ajralmas tarkibiy qismidir.

Saxiylikning tildagi ifodalanishi uning turli motivlarini ham ochib beradi. Konseptning tuzilishida motivatsion belgilar alohida o'rin egallaydi: maqsad belgisi: yaxshilik qilish uchun berish, yordam berish uchun ulashish, savob uchun ehson qilish; usul belgisi: ixtiyoriy ravishda berish, chin ko'ngildan berish, beg'araz yordam berish; miqdor belgisi: ko'p berish, ayamay berish, saxiylarcha ulashish; natija belgisi: baraka topish, savobga erishish, hurmat qozonish.

Konseptning semantik strukturasi belgilangan qarama-qarshi semalar ham mavjud, masalan: isrof qilmaslik ↔ haddan tashqari sarflash, o'ylab ish tutish ↔ befarq sochish,

paremiyalarining saxiylik konseptining mazmuniy tarkibi va strukturasi tahliliy bayon etildi. Unda ushbu konseptning paremiologik maydoni yoritiladi, shuningdek, chog'ishtirilayotgan tillarda ifodalangan saxiylik va baxillikka oid paremiyalarda saxiylik konseptining lisoniy reprezentatsiyasi masalasiga alohida urg'u beriladi va asoslanadi.

Tahlil va natijalar. Saxiylik konseptining struktur tuzilishi ierarxik xarakterga ega bo'lib, konseptning yadrosini berish semasi tashkil etadi, uning atrofida esa moddiy va ma'naviy saxiylik komponentlarini o'z ichiga olgan yaqin periferiya joylashgan. Uzoq periferiyada esa ijtimoiy-madaniy konnotatsiyalar, metaforik modelar va pragmatik vazifalar aks etgan.

aql bilan berish ↔ ko'r-ko'rona ulashish. Xususan, rus va o'zbek tillarida saxiylik konseptning mazmuniy tarkibida quyidagi oppozitsiyalar mavjud:

– aksiologik qarama-qarshilik: SAXIYLIK ↔ BAXILLIK, rus tilida: *щедрость* ↔ *скупость*, o'zbek tilida: saxiylik ↔ ziqnalik;

– harakat xarakteri: IXTIYORIY ↔ MAJBURIY, rus tilida: *добровольно* ↔ *вынужденно*, o'zbek tilida: ko'ngildan ↔ majburiy;

– miqdor belgisi: ME'YORIDA ↔ HADDAN TASHQARI, rus tilida: *в меру* ↔ *чрезмерно*, o'zbek tilida: o'rtacha ↔ ortiqcha.

Aytib o'tish joizki, yuqorida tilga olingan semantik oppozitsiyalar saxiylik konseptining tabiatini shunday tavsiflaydiki, unda, bir tomondan, saxiylik yuksak insoniy fazilat sifatida ulug'lansa, ikkinchi tomondan, uning haddan tashqari namoyon bo'lishi salbiy baholanadi.

Saxiylik konseptining paremiologik maydoni rus va o'zbek tillarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Paremiyalar tahlili ko'rsatadiki, har ikki tilda saxiylik yuksak insoniy fazilat sifatida talqin etiladi, biroq uning ifodalanishida ayrim farqlar mavjud.

Saxiylik tushunchasining paremiologik maydoni: Markaziy komponentlar: 1. Saxiylikning mohiyatini ifodalovchi maqollar:

Rus tilida: *He тот богат, кто много имеет, а тот, кто много дает.*

O'zbek tilida: Saxiyning bog'i ko'karar, baxilning bog'i qurir.

2. Saxiylikning ahamiyatini ko'rsatuvchi hikmatlar: Rus tilida: *Щедрому Бог подает, скупой сам себя обкрадывает.* O'zbek tilida: Saxiyning xazinasi tugamas.

3. Saxiylikni ulug'lovchi naqlar: Rus tilida: Щедрый помогает без просьбы. O'zbek tilida: Saxiylik – mardlik belgisi.

Periferik komponentlar: 1. Mehmondo'stlik bilan bog'liq maqollar: Rus tilida: Что есть в печи, все на стол мечи. O'zbek tilida: Mehmon otangdan ulug'.

2. Isrofgarchilikni tanqid qiluvchi naqlar: Rus tilida: И добро должно иметь меру. O'zbek tilida: Haddan oshgan – xarob.

3. Saxiylik va baxillikni qiyoslovchi hikmatlar: Rus tilida: Щедрый унесет с собой – что отдал, скупой – что сберег. O'zbek tilida: Saxiy topib berar, baxil qopib yer.

Rus paremiyalarida saxiylikning ijtimoiy jihati, o'zbek paremiyalarida esa diniy-axloqiy tomoni kuchliroq ifodalanadi.

Saxiylik konseptining lisoniy reprezentatsiyasi rus va o'zbek tillarida turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Leksik-semantik vositalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rus tilida щедрый, щедрость, благодетель kabi asl slavyan so'zlari yetakchilik qilsa, o'zbek tilida saxiy, saxovat, himmat kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlar asosiy o'rinni egallaydi. Sinonimik qatorlarda ham farqlar ko'zga tashlanadi. Rus tilida щедрый – тороватый – великодушный qatorida keng qalblik ma'nosi ustunlik qilsa, o'zbek tilidagi saxiy – ochiqqo'l – oliyhimmat qatorida amaliy harakat ma'nosi kuchliroq. Grammatik vositalar orasida sintaktik konstruksiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, rus tilida Кто щедро живет, тот в славе умрет konstruksiyasida shart-oqibat munosabati ifodalansa, o'zbek tilidagi Saxiy bersa, elga berar konstruksiyasida harakatning yo'nalishi ta'kidlanadi. Stilistik vositalar tahliliga ko'ra, rus tilidagi Широкая душа никогда не обеднеет metaforasida ma'naviy kenglik urg'ulansa, o'zbek tilidagi Ochiq qo'lning rizqi mo'l metaforasida moddiy farovonlik aks etadi. Shuningdek, tabiat hodisalari bilan qiyoslashda ham farqlar bor: rus tilida Щедр как море deya kenglik xususiyati ta'kidlansa, o'zbek tilida daryodek serob deya to'kinlik jihati bo'rtiriladi.

Saxiylik konseptining milliy-madaniy xususiyatlari rus tilida keng qalblik metaforasi orqali ifodalanishida o'z aksini topadi. Buni У щедрого душа как море, Широкая душа всем пригожа kabi maqollarda ko'rish mumkin. Shuningdek, rus

madaniyatida saxiylik tabiat hodisalari bilan qiyoslanadi: Щедрый что солнышко красное, Щедрость что вешний дождь. O'zbek tilida esa saxiylik konseptida diniy-axloqiy jihat yetakchilik qiladi. Saxiyning qo'li – Ollohning qo'li, Saxiyga savob, baxilga azob kabi maqollar buning yaqqol dalilidir. Bundan tashqari, o'zbek madaniyatida saxiylik oilaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan: Saxiy ota-onang bo'lsa, el ichra yuzing yorug', Saxiyning uyi obod.

Konseptning funksional xususiyatlari ham tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Rus tilida ta'limiy funktsiya umuminsoniy qadriyatlar orqali ifodalansa (He тот борат, кто много имеет, а тот, кто щедро дает), o'zbek tilida ko'proq axloqiy yo'nalish ustun (Saxiylikni o'rgan, baxillikni unut). Baholovchi funktsiyada ham farqlar ko'zga tashlanadi: rus tilida ilohiy mukofot umumiy tarzda keltirilsa (Щедрому человеку Бог подает), o'zbek tilida aniq natija ko'rsatiladi (Saxiyning baxti kular).

Umuman olganda, rus tilida saxiylik konseptining ijtimoiy funktsiyalari ustunlik qilsa, o'zbek tilida axloqiy-ta'limiy funktsiyalar etakchilik qiladi. Bu farqlar ikki xalqning milliy mentaliteti, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar. Chog'ishtirilayotgan tillarda saxiylik konseptining struktur-mazmuniy tahlili natijasida shunday xulosalarga kelish mumkinki, konseptning semantik maydoni keng bo'lib, u insonning xulq-atvori, ma'naviy dunyosi va ijtimoiy faoliyatini qamrab oladi. Konseptning yadrosi berish semasi atrofida shakllangan. Konseptning periferik qismlari moddiy va ma'naviy saxiylik bilan bog'liq semalarni o'z ichiga oladi. Rus va o'zbek tillarida konseptning umumiy va farqli jihatlar mavjud bo'lib, ular milliy-madaniy xususiyatlar bilan bog'liq.

Paremiologik maydonning pragmatik xususiyatlari tahlili har ikkala tilda ham saxiylik konsepti muhim tarbiyaviy, baholovchi va me'yoriy vazifalarni bajarishini ko'rsatdi. Biroq rus paremiyalarida bu vazifalar ko'proq hayotiy tajriba, ratsional fikrlash orqali ifodalanagan bo'lsa, o'zbek paremiyalarida diniy-axloqiy qarashlar, an'anaviy qadriyatlar o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-oktyabrda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son farmoni // <https://lex.uz/en/docs/4829149>.
2. O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov). – T.: Sharq, 2016. – 512 b.
3. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.: Fan, 1985. – 200 b.
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent, 2002. – 60 b.
5. Madjidova R.U. Аксиологическое исследование антропоцентрических пословиц (на материале узбекского и русского языков). – Ташкент: VneshInvestProm, 2019 – 244 c.
6. Madjidova R. U. Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков). – Ташкент: Bookmany print, 2024. – 126 s.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 173 b.
8. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 109 b.
9. Nabieva D. O'zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishi. – Toshkent: SHarq, 2005. – 168 b.
10. Nazarov Q.N. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). – T.: Akademiya, 2011. – 384 b.
11. Rahimov G'. Ingliz tili O'zbekistonda: sotsiolingvistik va pragmatik ko'rsatkichlar. – Toshkent: Tamaddun, 2017. – 268 b.
12. Sayfullaeva R.R., Mengliev B., Boqieva G.H. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – 391 b.
13. Sapaev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, suz yasalishi va morfologiya). – Toshkent, 2009. – B. 71.
14. Safarov SH.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
15. Safarov SH.S. Pragmatolingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
16. Mieder Wolfgang. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood, 2004. – P. 304.